

Bank kengashining  
2022-yil 28-noyabrdagi  
84-sonli bayonnomasiga  
1-sonli ilova  
“Tasdiqlayman”  
InFinBank ATB  
Kengashi raisi  
Ahmadjonova A.N.

---

**“Invest Finance Bank”  
aksiyadorlik tijorat bankining  
2023-yil uchun biznes rejasi**

**Toshkent 2022-yil**

**“Invest Finance Bank”  
aksiyadorlik tijorat bankining  
2023-yil uchun biznes rejasি**

- 1. Boshqa banklardagi pul mablag‘lari** - ushbu modda bo‘yicha qoldiqlarning o‘sishi jami 99 mlrd. so‘mni tashkil etadi.
- Kreditlar** - kredit portfelining umumiy qoldig‘i 6 819 mlrd so‘mga yetkazilishi rejalashtirilmoqda, bu 2022-yil yakuniga nisbatan 2 051 mlrd so‘mga yoki 143,0 foizga ko‘pdir. Bunda yuridik shaxslarning kredit portfeli 933 mlrd so‘mga o‘sib, 3 818 mlrd so‘mni tashkil etishi, shu jumladan chet el valyutasidagi kreditlar 1 725 mlrd so‘mni tashkil qilishi kutilmoqda. Jismoniy shaxslar portfeli 1 119 mlrd so‘mga ko‘payib, 3 001 mlrd so‘mga yetadi. Rejalashtirilgan davr mobaynida jami 5 806 mlrd so‘m miqdorida kredit ajratish ko‘zda tutilgan, shundan yuridik shaxslarga 3 137 mlrd so‘m, jismoniy shaxslarga esa 2 669 mlrd so‘m miqdorida kredit beriladi. Jismoniy shaxslarni kreditlash yo‘nalishida ipoteka kreditlari 977 mlrd so‘mni, avtokreditlar 1 430 mlrd so‘mni va overdraftlar 594 mlrd so‘mni tashkil etadi. 2023-yil davomida jismoniy shaxslarga jami 94 950 ta kredit ajratish mo‘ljallangan, bu 2022-yilga nisbatan 38 498 taga yoki 168 foizga ko‘pdir. Jismoniy shaxslarga kredit ajratishda asosiy e’tibor 3 750 ta ipoteka operatsiyalariga, 11 700 ta avtokreditga va 79 500 ta overdraftga qaratiladi.
- Investitsiyalar** - 2023-yil davomida Bank Markaziy bank va Moliya vazirligining yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlari bilan investitsiya portfelini 1 053 mlrd. so‘mga yetkazish niyatida. Shu munosabat bilan qoldiqning o‘sishi 640 mlrd. so‘mni yoki 2,54 martani tashkil etadi. Mazkur modda bo‘yicha qoldiqlar likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti me’yoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar** - ushbu modda bo‘yicha qoldiq 418 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yil yakuniga nisbatan 22 mlrd. so‘mga yoki 105,6% ga oshgan. Qoldiqning o‘sishi Mustaqillik ko‘chasida umumiy qiymati 71 mlrd. so‘mlik binoning kapital qurilishi, 23 mlrd. so‘mlik bankomatlar, kassa texnikasi, serverlar, kompyuterlar va orgtexnika sotib olish, shuningdek 41 mlrd. so‘mlik amortizatsiya hisobiga ko‘zda tutilgan.
- Boshqa aktivlar** qoldig‘i 482 mlrd. so‘mni tashkil etib, 183 mlrd. so‘m yoki 161,4% ga o‘sadi. Hisoblangan foizlar va komissiyalarning o‘sishi 38 mlrd. so‘mni tashkil etadi.
- Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar** qoldig‘i 2 000 mlrd. so‘mni tashkil etadi, bu 2022-yilga nisbatan 792 mlrd. so‘m yoki 165% ko‘pdir. Yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari qoldig‘i 712 mlrd. so‘mga o‘sadi, shundan milliy valyutada 477 mlrd. so‘m, xorijiy valyutada 235 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari qoldig‘i 80 mlrd.

so‘mga o‘sadi, shundan milliy valyutada 19 mlrd. so‘m, xorijiy valyutada 61 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridagi umumiy qoldiqlar 401 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu 2022-yil yakuniga nisbatan 121 mlrd. so‘mga ko‘pdir.

**7. Muddatli va jamg‘arma omonatlari** - 1 455 mlrd. so‘mga yoki 134,9 foizga o‘sish bilan 5 628 mlrd. so‘mga yetkazish rejalashtirilmoqda. Yuridik shaxslarning muddatli va jamg‘arma omonatlari qoldig‘ining o‘sishi 752 mlrd. so‘mni tashkil etadi, shundan milliy valyutada 667 mlrd. so‘m, xorijiy valyutada 85 mlrd. so‘m bo‘ladi. Jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari qoldig‘ining o‘sishi 702 mlrd. so‘mni, shundan milliy valyutada 695 mlrd. so‘mni, xorijiy valyutada 7 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

**8. Moliya vazirligi resurslari** - Moliya vazirligi tomonidan ajratilgan mablag‘lar qoldig‘i (klasterlar, bolalar bog‘chalari va Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi) 530 mlrd. so‘mni tashkil etadi, bu 2022-yil yakuniga nisbatan 145 mlrd. so‘mga yoki 37,8 foizga ko‘pdir. Moliya vazirligi tomonidan ajratilayotgan mablag‘larning asosiy qismi Xorazm, Namangan va Farg‘onadagi klasterlar uchun mo‘ljallangan.

**9. Boshqa banklarning mablag‘lari va xorijiy banklarning kredit liniyalari** - jami qoldiq 426 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘sish 263 mlrd. so‘mni tashkil etadi. O‘sish mablag‘larining asosiy qismi 278 mlrd. so‘m bo‘lib, bank omonatlaridan iborat. Xalqaro moliya institatlari mablag‘lari qoldig‘i 6 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

**10. Subordinatsiyalangan qarz** - umumiy qoldiq 137 mlrd so‘mni tashkil etib, 66 mlrd so‘mga o‘sadi. Subordinatsiyalangan qarzni jalg qilish 2023-yil boshida 5 million AQSH dollari miqdorida rejalashtirilgan.

**11. Ustav kapitali** - qoldiq 158 mlrd so‘mga oshadi. Kapital miqdorini 658 mlrd so‘mga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bu hisobot davri davomida joriy foydadan foydalanib, audit o‘tkazilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

**12. Zaxira kapitali** - zaxira kapitalining 10 mlrd so‘mga o‘sishi, o‘tgan yilgi foydadan umumiy maqsadli zaxira fondiga 5% miqdorida ajratma qilish bilan bog‘liq.

**13. TIF va investitsiyalardan foizli daromad** - 146 mlrd so‘mni tashkil etib, bu 2022-yilga nisbatan 72 mlrd so‘mga ko‘p. Bo‘sh pul mablag‘lari yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga, ya’ni kreditlarga joylashtiriladi.

**14. Kreditlar bo‘yicha foizli daromad** 1 079 milliard so‘mni tashkil etadi, bu 2022 yilga nisbatan 370 milliard so‘mga yoki 152 foizga ko‘pdir. Ushbu daromad faol kreditlash orqali olinishi ko‘zda tutilgan.

**15. Komissiya va xizmatlar daromadlari** - yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob-kassa xizmatlari operatsiyalari, plastik kartochkalar, kreditlash bo‘yicha komissiyalar va boshqa daromadlardan 385 milliard so‘m miqdorida daromad olish rejalashtirilgan, bu 63 milliard so‘mga yoki 120 foizga o‘sishni anglatadi.

**16. Chet el valyutasidagi foyda** 132 milliard so‘mni tashkil etib, bu 2022 yilga nisbatan 39 milliard so‘mga yoki 142 foizga ko‘pdir.

17. **Depozitlar va xalqaro moliya institutlari bo'yicha foizli xarajatlar** 716 milliard so'mni tashkil etadi, bu 2022 yilga nisbatan 250 milliard so'mga ko'pdir.
18. **Xizmatlar bo'yicha xarajatlar** 59 mlrd. so'mni tashkil etib, 2 mlrd. so'mga yoki 103 foizga o'sadi. Bu xarajatlar xorijiy banklar, DXM va YalDXP komissiyalari, inkassatsiya, kreditlarni rasmiylashtirish, plastik kartochkalarga ishlov berish xarajatlari, shu jumladan YaUPM xarajatlaridan iborat bo'ladi.
19. **Operatsion xarajatlar** 492 mlrd. so'mni tashkil etib, 119 mlrd. so'mga yoki 132 foizga o'sadi. Bunda ish haqi moddasi bo'yicha 54 mlrd. so'mga, ijara va saqlash bo'yicha 26 mlrd. so'mga, ma'muriy xarajatlar 5 mlrd. so'mga, vakillik va xayriya xarajatlari 14 mlrd. so'mga (FGV xarajatlarining o'sishi, vakillik xarajatlari hisobiga), soliqlar va sug'urta bo'yicha 36 mlrd. so'mga o'sish kuzatiladi.
- 2023-yil uchun FOT koeffitsiyenti 23,8 foiz darajasida rejalashtirilmoqda.
20. **Zaxira xarajatlari** 65 mlrd. so'mni tashkil etadi, shundan standart aktivlar bo'yicha zaxiralarni shakllantirish 25 mlrd. so'mni tashkil qiladi.
21. **Sof foyda** barcha zaxiralarni hisobga olgan holda 390 mlrd. so'mni tashkil etib, bu 2022-yilga nisbatan 149 mlrd. so'mga yoki 162 foizga ko'p bo'ladi.
22. **ROA koeffitsiyenti** 2023-yil yakunida 3,1 foiz darajasida rejalashtirilmoqda, 2022-yil yakunida esa 3,2 foizni tashkil etgan.
23. **ROE koeffitsiyenti** 2023-yil yakunida 25,9% darajasida rejalashtirilmoqda, 2022-yil yakunida esa 24,4% ni tashkil etgan.
24. 2023-yil yakunida **sof foizli marja** 4,9 foiz darajasida rejalashtirilmoqda, 2022-yil yakunida esa 4,8 foizni tashkil etgan.
25. **Shtatdagi xodimlar soni** 1401 nafarni tashkil etadi, bu 2022-yilga nisbatan 109 nafar yoki 109% ko'pdir. Fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlovchi xodimlarni hisobga olgan holda umumiyligi shtat soni 1461 nafarni tashkil etadi.
26. **Bir xodimga to'g'ri keladigan foyda** 2023-yil yakunida 232 million so'm miqdorida rejalashtirilmoqda. 2022-yil yakuniga ko'ra, bu ko'rsatkich 156 million so'mni tashkil etgan, o'sish 76 million so'mga yoki 148 foizga kutilmoqda.
27. **Plastik kartalar chiqarish** - 2023-yil davomida 113 000 ta plastik karta (shu jumladan VISA - 60 000 ta) muomalaga chiqarilishi rejalashtirilmoqda, bu 2022-yilga nisbatan 55 300 taga ko'pdir.
28. **Xalqaro pul o'tkazmalari** - 2023-yil davomida 600 ming pul o'tkazmasi operatsiyasini amalga oshirish rejalashtirilgan, bu 2022-yilga nisbatan 19,2 ming operatsiyaga ko'pdir. Pul o'tkazmalarining umumiyligi hajmi 600 million AQSH dollarigacha yetkazilishi mo'ljallanmoqda, bu 2022-yilga nisbatan 20 million AQSH dollariga ko'pdir. AQSH dollari, ya'ni 20 mln.

29. **Bankomatlar** - bankomatlar soni 128 taga oshirilib, 540 taga yetkazilsin. Naqd pul berish operatsiyalaridan olinadigan daromad 60 milliard soʻmgacha yetkazilsin, bu 2022-yilga nisbatan 10 milliard soʻmga koʻpdir.

30. **Faol mijozlar soni** - yuridik shaxslarning umumiy sonini 4 038 taga yoki 130 foizga koʻpaytirib, 17 598 taga yetkazish, jismoniy shaxslarning umumiy sonini esa 80 000 taga yoki 130 foizga oshirib, 350 000 taga yetkazish.

31. "InFinBank" ATBning 2023-yil uchun balans rejasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda Mehnatga haq toʻlash jamgʻarmasining tafsilotlari 1, 2, 2a va 3-ilovalarga muvofiq taqdim etiladi.